

## FORMATION AND REFLECTION OF EXPENSES AND INCOME IN ACCOUNTING

Badalov Maqsud Abdukhaliyovich

TerDu Accounting (by industry and industry)

2nd year Master's Student

### ANNOTATION

In this article, the formation of expenses and income in the accountant's account, the analytical results in them. The issues of forecasting through the analytical results are presented.

**Keywords.** Economics, accounting, expenses, income, business entities, financial reporting, enterprise.

### INTRODUCTION

Iqtisodiyotni yangi shaklga talablariga moslash va diversifikatsiyalash sharoitida xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichidan olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxida sarflangan xomashyo va materiallarning ulushini imkoniyat darajasida kamaytirish muhim o'rin tutadi, chunki talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan baho mahsulotlarning xaridorgirlik darajasini belgilaydi. Xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi uchun operatsiyalar amalga oshirilganligini qayd etuvchi boshlang'ich hisob hujjatlari va ularni o'tkazishga doir farmoyishlar asos bo'ladi. Ishlab chiqarishni samarali tashkil etayotganda tabiiy va moddiy resurslardan unumli foydalanish, ikkilamchi resurslar va yondosh mahsulotlarni maqsadga muvofiq ishlatishni taqozo etadi. Bu borada birinchi prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan e'tirof etilgan quyidagi fikrlarni keltirish o'rinlidir: "Xususiy sektorda mablag'lardan samarali foydalanilmoqda. Bu sohada yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo'lib, ishlab chiqarish tufayli imkon qadar ko'p daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalarga erishilayotganini ta'kidlash joiz. Bularning barchasi bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalarining asosiy maqsadidir". Bozor mexanizmining asosi korxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va xolis baholash, maxsus jamg'armalarni shakllantirish va foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida daromadlar va xarajatlarni hisoblash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichi hisobot davrida xususiy kapital qiymatining o'sishi (kamayishi)ni o'zida aks ettiruvchi moliyaviy natija hisoblanadi. Rossiyalik iqtisodchi olim N. Posherstnikning fikricha, "Moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari korxonalar faoliyati natijasida olingan iqtisodiy samarani ifodalaydi". Shu boisdan xo'jalik yurituvchi sub'ektda iqtisodiy samaraga erishish, uni rivojlantirishdagi muhim vazifa korxonaning operatsion, moliyaviy va investitsiya faoliyatida rahbariyat tomonidan daromadlar va xarajatlarni samarali boshqarish usullarini egallashi zarur bo'ladi. Foyda shakllanishini samarali boshqarish boshqaruv jarayonining tashkiliy-uslubiy tizimini barpo etish, foyda shakllanishining asosiy mexanizmlarini bilish, uni tahlil va nazorat qilishda zamonaviy usullardan foydalanishni ko'zda tutadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shakllanishining muhim jihati unda aks ettiriladigan foydalanuvchilar ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan ko'rsatkichlarning miqdoridir. Ushbu ko'rsatkichlar

miqdorining ko'payishi foydalanuvchilarga ko'proq ma'lumot beradi, shu bilan birgalikda ularning yuzaga kelish shartlari ochib beriladi. Ko'rsatkichlar miqdorining kamayishi ularni o'qishiga qulay bo'ladi, ammo kamroq axborot berib, foyda va zararlarning shakllanish shartlarini to'liq ochib bermaydi. Bugungi kunda axborotlar shaffofligi va barcha uchun maqbulligiga e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot tuzilishi faoliyat turlari bo'yicha daromad va xarajatlarning tasniflanishiga asoslanadi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlari shakllanishiga bo'lgan ushbu yondashuv barcha rivojlangan mamlakatlar uchun xarakterlidir. Ammo hisobot shakllanishidagi asosiy masala taqdim etiladigan ko'rsatkichlarning hajmidir. Respublikamizda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002 yil 27 dekabrda "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida" buyrug'i asosida to'ldiriladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida NIZOM"da belgilangan daromad va xarajatlarni tasnifiga binoan amalga oshiriladi. "Daromad" va "xarajat" kategoriyalari buxgalteriya hisobining fundamental tushunchalari hisoblanadi. Ushbu kategoriyalar korxonaning asosiy maqsadiga erishish, moliyaviy natijalarni maksimallashtirish va hisobotdan foydalanuvchilarga boshqaruv va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, "daromad" va "xarajat" kategoriyalari faqatgina buxgalteriya hisobida emas, balki butun tashkilotni boshqarishda ham muhim rol o'ynaydi.

Daromad va xarajatlarni turli tizimlarda qo'yilgan talablarga asosan turlicha tasniflanadi va izohlanadi. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida daromad va xarajatlarga turlicha ta'rif berilgan.

Daromad va xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning asosiy vazifasi ularning miqdorini aniqlashdir. Daromad va xarajatlarni miqdorini baholashning xolisligi va haqqoniyligiga xo'jalik bitimlarining noaniqligi o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu esa daromad va xarajatlarni tan olish vaqti bilan hisobot davrlari o'rtasida daromad va xarajatlarni haqidagi hisob axborotini taqsimlashga bog'liqligi bilan ifodalanadi. Ma'lumki, har bir bitimga uni tan olish mezonlari qo'llaniladi. Vaziyatni aniqlash chog'ida bir bitimning alohida elementlariga tan olishning mezonlarini qo'llash zarur. Masalan, mahsulotni sotish narxi sotishdan so'nggi xizmat ko'rsatish uchun muayyan qiymatni o'z ichiga oladigan bo'lsa, bu qiymat shu muddatdan ajratilib xizmat ko'rsatilgan davr davomida asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromad, deb e'tirof etiladi. Aksincha, bitimlar bir butun bitimning turkumlari deb qaralganda natijalari haqiqiy bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan ikki yoki undan ortiq bitimlarga e'tirof etish mezonlari qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash joizki, noaniqlik sharoitida daromad va xarajatlarni tan olishning asosiy shartlari ularning ishonchli baholanishi va tan olish vaqtida ehtiyotkorlik tamoyiliga amal qilinishi hisoblanadi. Bu yerda ehtiyotkorlik tamoyili deganda, bitim bilan bog'liq iqtisodiy naf olish ehtimoli mavjud bo'lishi, shuningdek, bitim bilan bog'liq qilingan yoki kutilayotgan xarajatlarni ishonchli darajada aniqlanadigan bo'lishi tushuniladi. Demak, daromad va xarajatlarni ishonchli darajada baholanganida ular tan olinadi. Agar daromad olish noaniq bo'lsa, ular xarajat sifatida tan olinadi. Daromadga kiritilgan miqdorni undirish

xususida noaniqlik vujudga kelgan taqdirda qaytarilmagan miqdor yoki olish mumkin bo'lmagan miqdordagi pul dastlab tan olingan daromad miqdorining o'zgartirilishi sifatida emas, balki xarajat sifatida tan olinadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromad va xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishida ehtiyotkorlik tamoyiliga amal qilishi maqsadga muvofiqdir. Bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda rentabellikni oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Foydaning shakllanishida buxgalteriya hisobida daromad va xarajatlar sifatida tavsiflanuvchi xo'jalik faoliyati faktlari ishtirok etadi. Lekin ularning barchasi ham shu hisobot davriga taalluqli daromad yoki xarajat sifatida aks etmasligi mumkin. Joriy va kelgusi hisobot davrlariga taalluqli daromad va xarajatlar xususidagi axborotlarni taqsimlash asosan professional buxgalterning mushohadasiga (daromad va xarajat o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud bo'lmaganida) bog'liq. Demak, foydaning shakllanishida hisobot davridagi daromad va xarajatlarning bir-biriga muvofiqligi tamoyiliga amal qilish lozim.

Agar hisobot davrida qilingan xarajatlar kelgusi hisobot davrlarida daromad keltiradigan bo'lsa, bunday xarajatlar kapitalizatsiya qilinadi, ya'ni hisobot davri xarajatlari tarkibidan chiqarilib, korxonada aktivlari qatoriga kiritiladi. Demak, joriy davrdagi xarajatlar aktivlar qiymatining oshishiga qaratiladi. Aktivlar esa kelajakda daromad keltirish maqsadida shakllantiriladi. Buni B. Nidlz, X. Anderson, D. Kolduellar quyidagicha ta'kidlagan: «Aktiv — kelajakda daromad keltirishi lozim bo'lgan xarajatlardir». Bunday xarajatlar zaxiralar, uzoq muddatli aktivlar qiymatiga qo'shiladi, shuningdek, debitorlik qarzlari yoki kelgusi davr xarajatlari ko'rinishida bo'lishi mumkin. Moddiy qiymatliklarga qilingan xarajatlar aktivlarning o'sishiga olib kelsa, shu paytda xarajatlar kapitalizatsiya qilinadi.

Kelgusi davr xarajatlarini hisobdan chiqarish tartibi korxonaning hisob siyosatida ko'rsatilishi kerak. Kelgusi davr xarajatlarining mavjudligi foydaning oshishiga va debitorlik qarzlarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, agar kelgusi davr xarajatlari me'yoriy talablar doirasida yuzaga kelgan bo'lsa, hisobot ishonchli hisoblanadi. Demak, kelgusi davr xarajatlarining mavjudligi hisobotning ishonchliligini inkor etmaydi. Shu boisdan moliyaviy hisobotning tushuntirish xatida kelgusi davr xarajatlarining tarkibi va ularni hisobdan chiqarish tartibi haqida axborot berish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, hisobotdan foydalanuvchilarni foydali va ishonchli axborot bilan ta'minlaydi Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, buxgalteriya hisobida hisobot davri daromad va xarajatlarning muvofiqligi va ehtiyotkorlik tamoyillariga amal qilish moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: //Xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar.
2. Posherstnik N.V. Buxgalterskiy uchet na sovremennom predpriyatii: uchebno-prakticheskoe posobie. – M.: Prospekt, 2011. -560 s.
3. "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos" nomli BHMS. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

4. Remizova Ye.Yu., Sultanova G.S. Podgotovka k perexodu na MSFO: chto neobxodimo znat glavnomu buxgalteru. – M.: Sistema GARANT, 2009. -70 s.
5. Xendriksen E.S., Van Breda M.F. Teoriya buxgalterskogo ucheta: Per. s angl. / Pod red. Ya.V. Sokolova. – M.: Finansy i statistika, 1997. – 576 s.